



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 76-87 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

FOYDA SOLIG'I BO'YICHA KECHIKTIRILGAN MAJBURIYATLARNI TAN OLISH, BAHOLASH VA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Butunov Shaymardan Berdiyovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarni tan olish, baholash va hisobini yuritish masalalari tahlil qilingan. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari asosida kechiktirilgan soliq majburiyatlarining iqtisodiy mazmuni, ularni shakllantirish omillari hamda amaliyotda yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: foyda solig'i, kechiktirilgan soliq majburiyatlari, vaqtinchalik farqlar, soliq aktivlari, kechiktirilgan soliq, muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari, chegiriladigan vaqtinchalik farqlar.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы признания, оценки и учета отложенных налоговых обязательств. В частности, рассматривается экономическое содержание отложенных налоговых обязательств, факторы, формирующие их, и проблемы, возникающие на практике, на основе требований международных стандартов финансовой отчетности.

Ключевые слова: подоходный налог, отложенные налоговые обязательства, временные разницы, налоговые активы, отложенный налог, отложенные налоговые обязательства, вычитаемые временные разницы.

Abstract: This article analyzes the recognition, valuation, and accounting of deferred income tax liabilities. In particular, based on the requirements of international financial reporting standards, the economic content of deferred tax liabilities, the factors of their formation, and problems arising in practice are considered.

Keywords: income tax, deferred tax liabilities, temporary differences, tax assets, deferred tax, deferred tax liabilities, deductible temporary differences.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda Buxgalteriya hisobi va hisobotini jahon andozalari darajasiga chiqarishning yagona yo'li bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg'or xorijiy tajribalarni, sohaga doir jahon adabiyotlari va hujjatlarini o'rganish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilishdan iboratdir.

Bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan xalqaro standartlardan biri bu 12-son BHXS "Foyda solig'i" standartini hisoblanadi. Foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar vaqtinchalik farqlar hisobidan yuzaga keladi. Bizning amaliyotimizda vaqtinchalik farqlar asosida kechiktirilgan majburiyatlarni hisoblash tartib qoidalari to'liq o'z yechimini

topgan emas. Ushbu tushunchaga batafsil yechim topish uchun vaqtinchalik farqlar tushunchasi, uning tan olinishi, baholanishi, aniqlash tartibi bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Shu bois, vaqtinchalik farqlar metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

A.A.Ostonaqulov "Vaqtinchalik farqlar – bu daromad va xarajatlarning ayrim moddalari soliqqa tortiladigan daromadga kiritiladigan hisobot davri uchun ular buxgalteriya daromadiga kiritiladigan hisobot davri bilan mos kelmasligidan vujudga keladigan, soliqqa tortiladigan va buxgalteriya daromatlari orasidagi farqlardir. Vaqtinchalik farqlar bir yoki bir necha keyingi davrlarda hisobdan chiqariladi" deb ta'rif keltirgan. [5]

T.Yu.Drujilovskaya "Kechiktirilgan soliq majburiyatlari deganda, tashkilotning soliq va yig'implar bo'yicha kelgusi hisobot davrlarida so'ndiriladigan qarzlari, kichiktirilgan soliq aktivlari – tashkilotning soliq va yig'implari bo'yicha kelgusi hisobot davrlarida undiriladigan qarzlari hisoblanadi." [4]

A.V.Suvorov "Kechiktirilgan soliqlar g'oyasi shundan iboratki, xo'jalik sub'ekti hisobotida soliqlar to'lovi bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarni tan olishi shart, agarda qaysidir aktivlarning qiymatini qoplash, yoxud qaysidir majburiyatlarni tartibga solish kelgusi davrlarda soliq to'lovlarining ko'payishiga yoki kamayishiga olib kelsa, qachonki bunday qoplamalar va tartibga solishlar soliq oqibatlariga ega bo'lmasa" [6]

21-son BHMSda 6250 - "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i majburiyatlari" hisobvarag'ida vaqtinchalik farqlar natijasida yuzaga kelgan kechiktirilgan foyda solig'i summasi aks ettiriladi. Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'iga doir majburiyatlarning tegishli joriy qismi 7250 - "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i uzoq muddatli majburiyatlari" hisobvarag'idan 6250 - "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i majburiyatlari" hisobvarag'iga o'tkaziladi. Keyinchalik vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i vujudga kelishiga qarab 6250 - "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i majburiyatlari" hisobvarag'i 6410 - "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (turlari bo'yicha)" hisobvarag'i bilan bog'lanadi" degan qoida kiritilgan. [3]

Tahlil va natijalar

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda va sohaga doir adabiyotlarda vaqtinchalik farqlarning aniq tarkibi to'liq belgilanmagan. Bu esa vaqtinchalik farqlarni to'g'ri aniqlash, vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarni haqqoniy aks ettirish imkoniyatini bermaydi.

Biz tadqiqotlar jarayonida aniqlangan vaqtinchalik farqlarni yuzaga keltiruvchi holatlarni quyidagi jadvalda umumlashtiramiz (1-jadval).

1-jadval

Vaqtinchalik farqlarni yuzaga keltiruvchi holatlar

Yuzaga keltiruvchi holatlar	Buxgalteriya hisobida	Soliq hisobida
Asosiy vositalar	Amortizatsiya bo'yicha	Bir tekisda taqsimlash usuli

bo'yicha	tezlashirilgan usullar	
Olinadigan foizlar balans qiymati 100 p.b. Taalluqli foiz daromadi kassa metodiga asosan soliqqa tortiladi	Hisoblash tamoyiliga asosan	Olinadigan foizlar kassa metodi asosida hisobga olinishi mumkin
Savdo debitorlik qarzlari	Hisoblash tamoyiliga asosan. Shubhali qarzlarda bo'yicha rezervlar ko'zda tutiladi	Ayrim turdagi debitorlik qarzlarga nisbatan kassa metodi asosida hisobga olinishi mumkin. Shubhali qarzlarda bo'yicha rezervlarni hisobga olmasligi mumkin
Devidendlar bo'yicha	Hisoblash tamoyili asosida yoki kassa metodi asosida hisobga olinishi mumkin	Kassa metodi ko'zda tutilgan bo'lishi, soliqqa tortilishi yoki boshqa holatlar ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin
Qisqa muddatli majburiyatlar	Hisoblash tamoyili	Moliyaviy hisobdan farq qiladigan usullarda tan olinishi mumkin
Tajriba-konstruktorlik ishlab chiqish xarajatlari	Kapitalizatsiya qilinishi va kelgusi davrlarda xarajatlarga olib borilishi mumkin	Soliq solinadigan foydani aniqlashda ular yuzaga kelgan davrda chegirilishi mumkin

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Soliq aktivlari (talabnomalari) va majburiyatlari buxgalteriya balansida boshqa aktiv va majburiyatlardan alohida aks ettirilishi lozim. Xalqaro standartlarga talablariga muvofiq muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari joriy soliq aktivlari va majburiyatlaridan ajratilgan bo'lishi lozim.

“**Kechiktirilgan soliq** – bu vaqtinchalik farqlar bo'yicha kelgusi davrlarda to'lanadigan foyda solig'i summasi” deb ta'rif keltirilgan.

Vaqtinchalik farqlar =

= Aktivlar yoki majburiyatlarning balans qiymati

– Aktivlar va majburiyatlarning soliq bazasi

Yuqoridagi bayon qilingan standart qoidalari asosida muddati uzaytirilgan soliqlarni hisob-kitob qilishning quyidagi qadamlarini keltirib chiqarish mumkin:

Birinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatini aniqlash;

Ikkinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlarning soliq bazasini hisoblash;

Uchinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlar balans qiymati ularning soliq bazalari bilan solishtiriladi va barcha vaqtinchalik farqlar aniqlanadi;

To'rtinchi qadam. 12-son BHMSlari talablariga muvofiq muddati uzaytirilgan soliqlarni yuzaga kelishiga olib kelmaydigan vaqtinchalik farqlarni aniqlash;

Beshinchi qadam. Soliq solishning stavkalarini qo'llash yo'li bilan muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va soliq majburiyatlarini (yoki sof muddati uzaytirilgan aktivlar va majburiyatlarini) hisoblash;

Oltinchi qadam. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va aktivlari qoldig'ining davr boshiga nisbatan o'zgarishini aniqlash va ushbu o'zgarishlarni tan olish:

- foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotda;
- kapitalda;
- yoki gudvilning kamayishi hisobidan (kompaniyalarni birlashtirishda);

Ettinchi qadam. Foyda solig'i stavkasi o'zgarishining ta'sirini hisoblash, agar foyda solig'i stavkasi qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa.

BHXSlariga keltirilgan tushuntirishlar asosida kechiktirilgan soliq aktivlar va majburiyatlarni tan olish, baholash va hisoblash tartibiga doir uslubiy masalalarni korxonalar amaliyoti asosida ko'rib chiqamiz

Aziya metall xorijiy kompaniyasi 2022 yil 1-yanvar holati bilan 156 000 000 so'm mashina va asbob-uskunalar xaridini amalga oshirgan, qaysiki 3 yilgacha tezlashtirilgan usul asosida amortizatsiyalanadi. 3 yilda amortizatsiya amalga oshirilganligi munosabati bilan yillik amortizatsiya darajasi 33,33% ni tashkil etadi ($\frac{1}{3} \times 100\%$). Tezlashtirilgan

amortizatsiya darajasini topish uchun 33,33%lik daraja 2 ga ko'paytiriladi va natijada amortizatsiya darajasi 66,66 % bo'ladi. Qoldiqni kamaytirish metodi asosida amortizatsiya summasini hisoblaymiz (2-jadval).

2-jadval

Aziya metall MCHJda mashina va asbob-uskunalariga tezlashtirilgan amortizatsiya hisob-kitoblari

Yillar	Amortizatsiya xarajatlari	Jamg'arilgan eskirish	Yil oxirida qoldiq qiymati
Boshlang'ich qiymati			156 000 000
2022yil	$\frac{156\,000\,000 \times 66,66\%}{100} = 103\,989\,600$	103 989 600	52 010 400
2023 yil	$\frac{52\,010\,400 \times 66,66\%}{100} = 34\,670\,133$	138 659 733	17 340 267
2024 yil	$\frac{17\,340\,267 \times 66,66\%}{100} + 5\,781\,245 = 17\,340\,267$	156 000 000	0

Manba: korxonalar ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mamlakatning milliy soliq qonunchiligi soliq maqsadlarida soliqqa tortiladigan foydani hisoblashda tezlashtirilgan usulni emas, balki ushbu ob'ekt qiymati bo'yicha bir tekisda amortizatsiya hisoblash tartibi ko'zda tutilgan. Unga muvofiq yillar kesimida quyidagicha hisobdan chiqarishni ko'zda tutadi: 2022 yil 52 000 000 so'm; 2023 yil 52 000 000 so'm; 2024 yil 52 000 000 so'm.

Tashkilotning foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotida 2022 yilda – 299 000 000 so'm, 2023 yilda 320 000 000 so'm, 2024 yilda 330 000 000 so'm foyda ko'rsatilgan (amortizatsiya hisoblagunga qadar).

Foyda solig'i stavkasi 15%.

Foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobot hamda soliq hisobotlarida soliqqacha foyda va joriy soliqlar hisobida quyidagi jadvalda keltiramiz. (3-jadval):

3-jadval

Aziya metall xorijiy kompaniyasining 2022-2024 yillar davomida moliyaviy hisobot va soliq hisobotlarida soliqqacha foyda va joriy soliqlar hisobi

Ko'rsatkichlar	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisoboti			
Amortizatsiyaga qadar foyda	299 000 000	320 000 000	330 000 000
Amortizatsiya xarajatlari	103 989 600	34 670 133	17 340 267
Soliqqacha foyda	195 010 400	285 329 867	312 659 733
Joriy foyda solig'i	37 050 000	40 200 000	41 700 000
2022 yilda yuzaga kelgan kechiktirilgan foyda solig'i summasi va keyingi yillarda kiritiladigan o'zgarishlar summasi	7 798 440	(2 599 480)	(5 198 960)
Soliq hisoboti			
Amortizatsiyaga qadar foyda	299 000 000	320 000 000	330 000 000
Amortizatsiya xarajatlari	52 000 000	52 000 000	52 000 000
Soliqqacha foyda	247 000 000	268 000 000	278 000 000
Joriy soliqlar	37 050 000	40 200 000	41 700 000

Manba: Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobi foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdagi hamda soliq hisobotlaridagi aks ettirilgan soliqqacha foyda summasilari farq qiladi. Bu farqlar vaqtinchalik farqlar hisobidan yuzaga kelgan. Joriy foyda solig'i ikkala hisobotda ham yillar bo'yicha bir xil summada aks ettirilgan. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, vaqtinchalik farqlar hisobidan kechiktirilgan foyda solig'i yuzaga kelgan. Kechiktirilgan foyda solig'i summasi 2022 yili 7 798 440 so'mni tashkil etsa, keyingi yillarda ushbu summaga kiritiladigan o'zgarishlar summasi 2023 yili (2599 2804) so'm, 2024 yilda esa (5 198 960) so'mni tashkil qilgan. Kechiktirilgan foyda solig'i summasini hisoblash alohida hisob-kitoblarni talab etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, vaqtinchalik farqlar aktivlar va majburiyatlarning balans qiymati va soliq bazasi o'rtasidagi farq sifatida yuzaga keladi.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot nuqtai nazaridan vaqtinchalik farqlarni hisoblash va ular asosida muddati uzaytirilgan soliqlar summalarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (4-jadval):


4-jadval

Aziya metall xorijiy kompaniyasida 2022-2024 yillar davomida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida aks ettiriladigan kechiktirilgan foyda solig'i summasi. [7]

Ko'rsatkichlar	Balans qiymati	Soliq bazasi	Vaqtinchalik farq	Kechiktirilgan foyda solig'i summasi
2022 yil 1 yanvar holatida asosiy vositalar	156 000 000	156 000 000	0	0
2022 yil uchun amortizatsiya xarajatlari	103 989 600	52 000 000		
2023 yil 1 yanvar holatida asosiy vositalar	52 010 400	104 000 000	(51 989 600)	7 798 440
2023 yil uchun amortizatsiya xarajatlari	34 670 133	52 000 000		
2024 yil 1 yanvar holatida asosiy vositalar	17 340 267	52 000 000	(34 659 733)	5 198 960
2024 yil uchun amortizatsiya xarajatlari	17 340 267	52 000 000		
2024 yil 31 holatida asosiy vositalar	0	0	0	0

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023 yil 1 yanvar holatida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda 7 798 440 so'm kechiktirilgan foyda summasi aks ettiriladi. Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, 2023 yili kechiktirilgan foyda solig'i summasi 2 599 480 so'mga kamayadi va yil oxirida 5 198 960 so'mni tashkil etadi (7 798 440 – 2599 480). Natijada, 2024 yil 1 yanvar holatida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan kechiktirilgan foyda solig'i summasi 5 198 960 so'mni tashkil etadi. 2024 yilida esa 5 198 960 so'mga kamayadi. Natijada, 2024 yil 31 dekabr yoki 2025 yil 1 yanvar holatida kechiktirilgan foyda solig'i summasi 0 ga teng bo'ladi, ya'ni kechiktirilgan foyda solig'i summasi yopilib ketadi.

Xalqaro standartlarga muvofiq soliq solish maqsadlarida vaqtinchalik farqlar ikkita turga bo'linadi (1-rasm):

1-rasm. Vaqtinchalik farqlar¹

Tadqiqotlar asosida vaqtinchalik farqlarning muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari yoki muddati uzaytirilgan soliq aktivlarini yuzaga keltirishining muhim qoidasini keltiramiz:

- soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar, qaysiki muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlarini yuzaga keltiradi;
- chegiriladigan vaqtinchalik farqlar, qaysiki muddati uzaytirilgan aktivlarni yuzaga keltiradi.

Vaqtinchalik farqlarni aniqlash formulalarini quyidagi jadvalda aniqlashimiz mumkin (5-jadval).

5-jadval

Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va muddati uzaytirilgan soliq aktivlarini hisoblash tartibi*

	Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlarini hisoblash	Muddati uzaytirilgan soliq aktivlarini hisoblash
Aktivlar	Balans qiymati > Soliq baza	Balans qiymati < Soliq baza
	Balans qiymati – Soliq bazasi = Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farq	Soliq bazasi – Balans qiymati = Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar
	Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari = Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar × Soliq stavkasi	Muddati uzaytirilgan soliq aktivi = Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar × Soliq stavkasi
Majburiyat-lar	Balans qiymati < Soliq bazasi	Balans qiymati > Soliq bazasi
	Soliq bazasi – Balans qiymati = Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farq	Balans qiymati – Soliq bazasi = Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar

¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

	Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari = Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar × Soliq stavkasi	Muddati uzaytirilgan soliq aktivi = Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar × Soliq stavkasi
--	--------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqotlar asosida aktsiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlarning yuzaga kelishi, ularning hisoblanish uslubiyotini keltiramiz.

“Qamashi DKK” MCHJ kompaniyasining hisobotida olinadigan foizlar 4 500 550 soʻm miqdorida koʻrsatilgan. Ushbu daromad foyda soligʻiga kassa metodi boʻyicha hisobga olinadi.

Demak, aktivning balans qiymati 4 500 550 soʻm, soliq bazasi esa nolga teng. U holda soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farq 4 500 550 soʻmga teng boʻladi.

Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farq

$$= \text{Aktivning balans qiymati} - \text{Aktivning soliq bazasi} = 4\,500\,550 - 0 = 4\,500\,550 \text{ soʻm}$$

“Qamashi DKK” MCHJda hisobot sanasida moliyaviy aktivlarning adolatli qiymatida 3 850 500 soʻmda aks ettirilgan, uning boshlangʻich qiymati esa 2 200 500 soʻmga teng. Soliq qonunchiligida moliyaviy aktivlarni qayta baholanishi inobatga olmaydi.

Moliyaviy aktivlarning balans qiymati 3 850 500 soʻm, soliq bazasi esa 2 200 500 soʻm teng. Natijada, soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farq 1 650 000 soʻm boʻladi.

Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farq

$$= \text{Aktivning balans qiymati} - \text{Aktivning soliq bazasi} = 3\,850\,500 - 2\,200\,500 =$$

1 650 000 soʻm

Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar aktivning balans qiymati uning soliq bazasidan kichik yoki majburiyatlarning balans qiymati uning soliq bazasidan katta boʻlgan hollarda yuzaga keladi.

Aktivning balans qiymati < Aktivning soliq bazasi = Chegiriladigan vaqtinchalik

farqlar

Majburiyatning balans qiymati > Majburiyatning soliq bazasi = Chegiriladigan

vaqtinchalik farqlar

“Qamashi DKK” MCHJda joriy majburiyatlar 28 480 500 soʻm miqdorida hisoblangan majburiyatlarni ham oʻz ichiga oladi. Soliq qonunchiligiga muvofiq ushbu majburiyatlar boʻyicha xarajatlar soliqqa tortiladigan foydaning kamayishiga toʻlash momentida olib boriladi.

Majburiyatlarning soliq bazasi nolga teng. Balans qiymati 24 480 500 soʻm. Demak, chegiriladigan vaqtinchalik farqlar 24 480 500 ga teng.

Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar

$$= \text{Majburiyatning balans qiymati} - \text{Majburiyatning soliq bazasi} = 24\,480\,500 - 0 =$$

24 480 500 so'm

Hisobot yilining oxirida kompaniyaning moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida debitorlik qarzdorligi summasi 3 250 000 000 so'mni tashkil etadi. Yillik hisobot tayyorlashda kompaniya o'zining hisob siyosati va 9-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar"ga muvofiq gumonli qarzlarni bo'yicha 350 000 000 so'm rezerv yaratilishi ko'zda tutilgan. Qoidaga muvofiq soliqqa tortiladigan foyda faqat hisobdan chiqariladigan gumonli qarzlarni summasiga kamaytirilishi mumkin.

Debitorlik qarzlarning soliq bazasi uning to'liq qiymatiga teng, ya'ni 3 250 000 000 so'm bo'ladi.

Debitorlik qarzlarning moliyaviy hisobdagi sof qiymatini aniqlaymiz.

Debitorlik qarzlarning sof qiymati

$$= \text{Debitorlik qarzlari} - \text{Gumonli qarzlarni bo'yicha rezerv}$$

$$= 3\,250\,000\,000 - 350\,000\,000 = 2\,900\,000\,000 \text{ so'm}$$

Chegiriladigan vaqtinchalik farq

Chegiriladigan vaqtinchalik farq = Aktivning soliq bazasi - Aktivning balans qiymati

$$= 3\,250\,000\,000 - 2\,900\,000\,000 = 350\,000\,000 \text{ so'm}$$

Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va muddati uzaytirilgan soliq aktivlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida aktsiyadorlik jamiyatlarining ishchi schyotlar rejasida taalluqli schyotlarning ochilishini taqozo etadi. Tadqiqotlar asosida aktsiyadorlik jamiyatlari ishchi schyotlar rejasiga quyidagi schyotlarni kiritishni tavsiya etamiz (6-jadval).

6-jadval

Korxonalar hisob siyosatiga joriy va muddati uzaytirilgan soliqlarni hisobga olishga mo'ljallangan schyotlar*

Schyotlar kodi	Schyotlarning nomi
0950	Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq aktivlari
6240	Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq majburiyatlari
6420	Foyda solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar
9820	Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Ushbu schyotlarning qo'llanilishini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlarining yuzaga kelganligiga doir ma'lumotlar keltirilgan (7-jadval).

7-jadval

“Qamashi DKK” MCHJda 2020-2024 yillar davomida muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlarining hisob-kitobi (ming so‘m)*

Ko‘rsatkichlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Soliq hisoboti					
Soliq amortizatsiyasi	2 200 000	1 320 000	792 000	475 200	712 800
Soliq bazasi	3 300 000	1 980 000	1 188 000	712 800	0
Moliyaviy hisobot					
Boshlang‘ich qiymat	5 500 000	5 500 000	5 500 000	5 500 000	5 500 000
Jamg‘arilgan amortizatsiya	1 100 000	2 200 000	3 300 000	4 400 000	5 500 000
Balans qiymati	4 400 000	3 300 000	2 200 000	1 100 000	0
Vaqtinchalik farqlar va kechiktirilgan soliq majburiyatlari hisob-kitoblari					
Vaqtinchalik farqlar	1 100 000	1 320 000	1 012 000	387 200	0
Muddati uzaytirilgan soliq majburiyati (aktivi), 15%	165 000	198 000	151 800	58 080	(58 080)

Manba: tadqiqotlar asosida “Qamashi DKK” MCHJ ma’lumotlari asosida

Vaqtinchalik farqlar asosida aniqlangan kechiktirilgan soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida yuqorida taklif etilgan schyotlar asosida buxgalteriya yozuvlari ishlanmalarini taklif etamiz 7-jadval ma’lumotlar asosida muddati uzaytirilgan soliqlarga doir buxgalteriya yozuvlarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (8-jadval).

8-jadval

Qamashi DKK MCHJ misolida 2020-2024 yillar davomida joriy va muddati uzaytirilgan soliqlarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirish tartibi (so‘m)*

Operatsiyalarning mazmuni	Yozuvlar		Summa
	D-t	K-t	
Joriy foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblar			
1. Yillik foyda solig‘i hisob-kitobi taqdim etildi	9820	6420	186 320 000
2. Ushbu soliq summasi bo‘yicha avans summasi o‘tkazib berildi	4420	5110	120 840 000
3. O‘tkazib berilgan avans summasi hisobidan byudjet bilan foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblar yopildi	6420	4420	120 840 000
4. Byudjet bilan foyda solig‘i bo‘yicha avans qoplangandan keyingi qarz summasi byudjetga o‘tkazildi (186 320 000 – 120 840 000)	6420	5110	65 480 000
Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq majburiyatlari bo‘yicha hisob-kitoblar (yuqoridagi misol asosida)			
1. 2020 yili hisob-kitoblar asosida muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari yuzaga keldi	9810	6240	165 000 000

2. 2021 yili hisob-kitoblar asosida 198 000 000 so'm muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari yuzaga kelgan. 2020 yilga nisbatan oshgan qismiga buxgalteriya yozuvi beriladi (198 000 000 – 165 000 000)	9810	6240	33 000 000
3. 2022 yili hisob-kitoblar asosida 151 800 000 so'm muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari yuzaga kelgan. 2021 yilga nisbatan kamaygan qismiga (151 800 000 – 198 000 000)	6240	9810	46 200 000
4. 2023 yili hisob-kitoblari asosida 58 080 000 so'm muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari yuzaga kelgan. 2022 yilga nisbatan kamaygan qismiga (58 080 000 – 151 800 000)	6240	9810	93 720 000
5. 2024 yili muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlarining to'liq qismi so'ndiriladi	62 40	9810	58 080 000

Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Xalqaro standart talablariga muvofiq aktivlar qayta baholanganda ham muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va majburiyatlar yuzaga keladi. Bu borada xalqaro standartdagi qoida shundan iboratki, qayta baholashda aktivlarning balans qiymati o'zgaradi, lekin soliq bazasi o'zgarmaydi. Shu bois, qayta baholangan aktivning balans qiymati bilan uning soliq bazasi o'rtasidagi farq – bu vaqtinchalik farqlarning ma'lum turi hisoblanadi, qaysiki muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va soliq aktivlarini yuza kelishiga olib keladi. Bu foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotda emas, balki qayta baholash rezervida o'z aksini topadi.

Xulosalar va takliflar

Ushbu tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Xalqaro standartlar qoidalari asosida muddati uzaytirilgan soliqlarni hisob-kitob qilishning quyidagi qadamlari tavsiya e'tildi:

Birinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatini aniqlash;

Ikkinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlarning soliq bazasini hisoblash;

Uchinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlar balans qiymati ularning soliq bazalari bilan solishtiriladi va barcha vaqtinchalik farqlar aniqlanadi;

To'rtinchi qadam. 12-son BHMSlari talablariga muvofiq muddati uzaytirilgan soliqlarni yuzaga kelishiga olib kelmaydigan vaqtinchalik farqlarni aniqlash;

Beshinchi qadam. Soliq solishning stavkalarini qo'llash yo'li bilan muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va soliq majburiyatlarini (yoki sof muddati uzaytirilgan aktivlar va majburiyatlarini) hisoblash;

Oltinchi qadam. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va aktivlari salbdosining davr boshiga nisbatan o'zgarishini aniqlash va ushbu o'zgarishlarni tan olish: foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotda; kapitalda; yoki gudvilning kamayishi hisobidan (kompaniyalarni birlashtirishda);

Etтинchi qadam. Agar foyda solig'i stavkasi qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa, foyda solig'i stavkasi o'zgarishining ta'sirini hisoblash.

2. Moliyaviy hisobot va soliq hisobotlarida soliqqacha foyda va joriy soliqlar hisobi, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida aks ettiriladigan kechiktirilgan foyda solig'i summasi, Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq majburiyatlari va muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq aktivlarini hisoblashning uslubiy tartibi hamda formulalari taklif etildi.

3. Korxonalar hisob siyosatiga joriy va muddati uzaytirilgan soliqlarni hisobga olishga mo'ljallangan schyotlar quyidagi schyotlar: 0950 Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq aktivlari; 6240 Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) soliq majburiyatlari; 6420 Foyda solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar; 9820 Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar. Ushbu tavsiya etilgan ishchi schyotlar asosida joriy va muddati uzaytirilgan soliqlarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirish tartibi tavsiya etildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son. <http://www.lex.uz/docs/4674902>.

2. 12-son BHXS "Foyda solig'i" [https://nrm.uz/contentf?doc=650006_\(ias\)_12_nalogi_na_pribyl&products=1_vse_zakono_datelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=650006_(ias)_12_nalogi_na_pribyl&products=1_vse_zakono_datelstvo_uzbekistana).

3. 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining hisob-varaqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi"

4. Дружиловская Т.Ю. Совершенствование бухгалтерского учёта обязательств по налогу на прибыль в России и сближение эго с требованиями МСФО. Журнал Международный бухгалтерский учёт 28 (226)-2012

5. Остонокулов. А.А. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари асосида солиққа тортиладиган фойда ҳисобининг ўзига хос хусусиятлари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил

6. Суворов. А.В. Учёт налога на прибыль // Международный бухгалтерский учёт 3 (63) март 2004.

7. 2016 PricewaterhouseCoopers. Все права защищены. Этот материал подготовлен Академией PwC для экзаменов DipIFR в 2020 году. В.1903-1904 даги uslubiy tartibi asosida ishlab chiqilgan.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

